

ISAJON SULTON BADIY DISKURSIDA QO'LLANGAN AYRIM METAFORALAR XUSUSIDA

Dilnoza Muhiddinovna Nasriyeva

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

dilnozanasriyeva0412@gmail.com

Annotatsiya: Badiiy asar kitobxon qalbidan chuqur o'rinn egallashi uchun muallifning tilning obrazli vositalaridan "xasisona" foydalanishi muhimdir. Ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sultan badiiy asarlarida qo'llangan ba'zi metaforalarning ko'rinishlari hamda metaforik mazmunli matnlarning diskursiv mohiyati tahlillar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, badiiy diskurs, yozuvchi tili va uslubi, lingvistik va badiiy metafora

ON SOME METAPHORS USED IN THE ARTISTIC DISCOURSE OF ISAJAN SULTAN

Abstract: In order for the literary work to take a deep place in the heart of the reader, it is important for the author to use the figurative means of the language "specially". In this article, the appearance of metaphors used in the artistic works of the writer Isajon Sultan and the discursive essence of metaphorical texts are highlighted based on the analysis.

Key words: artistic text, artistic discourse, writer's language and style, linguistic and artistic metaphor

KIRISH

“Yozuvchi uchun so‘z ham qurol, ham bo‘yoq, ham soz, ham tovush, ham mo‘yqalam vazifasini bajaradi, ya’ni so‘z mohir yozuvchilar qo‘lida obrazli fikrlash, go‘zal poetik manzaralar chizish uchun ajib vosita bo‘lib xizmat qiladi” [1;161]. O‘z asarlarida so‘z orqali butun borlig‘ini, samimiy va chuqur his tuyg‘ularini kitobxon bilan bo‘lishgan ana shunday mohir yozuvchi Isajon Sulton badiiy matnining o‘ziga xos jihatlari tadqiqotchi-filologlarimiz diqqat e’tiborini tortayotgani hech kimga sir emas. Fikrini maqsadli yetkazish uchun ko‘chma ma’nolarning barchasidan, ayniqsa, metaforalardan millatning o‘ziga xos milliy, ijtimoiy, siyosiy, diniy, tibbiy, madaniy va h. tasavvurini tasvirlash va tuchuntirish vositasi hamda uning umuminsoniy qiyofasini yaratish jarayonlarini tushunishning asosiy manbayi sifatida unumli foydalangan. Metafora badiiy matnda tez-tez ishlatalidigan ifoda vositasi, badiiy nutqning eng keng tarqalgan shakllaridan biridir. Bu so‘z ijodkoriga o‘z fikrini obrazli ifodalash, asarni turli hissiy tuslar bilan to‘ldirish imkonini beradi. “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da: “Metafora – (yun. metaphora – ko‘chirish) bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o‘xshashligini e’tiborga olib ko‘chirish”, – deb ta’rif berilgan [2;63]. Metafora yangi ma’nolar hosil qilish va badiiy obrazlar yaratishning asosiy usullaridan biridir. Har bir yangilanish, har bir taraqqiyot bevosita va bilvosita til birliklariga ham ta’sir etadi. Metaforani o‘rganishga qiziqishning o‘sishi uning turli sohalarda qo‘llanishining kengayishi e’tibordan chetda qolmadi. Olimlar, san’atshunoslar, faylasuflar, tilshunoslar unga katta qiziqish bilan murojaat qilishdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Metafora inson ong-u tafakkuri hamda bilishning eng sermahsul hodisasi ekanligi bilan ajralib turadi. XX asr boshlariga kelib, kognitiv tilshunoslikning shakllanishi va jadal rivojlanishi bilan metaforaning ko‘p qirrali, nihoyatda murakkab hodisa ekanligi tan olinib, fundamental bilish faoliyatining namoyon bo‘lishi sifatidagi mohiyati ochib berildi. Metafora, uning tahlili va talqinlari haqida

tilshunoslik tarixida juda ko‘p va xo‘p aytilgan. Metaforaning o‘rganish tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Aristotel zamonidan buyon u ritorika, psixologiya, falsafa, uslubiyat, adabiyotshunoslik kabi bir qancha fanlar doirasida tahlil etib kelindi. “Poetika” asarida metafora(to‘g‘rirog‘i epifora) tushunchasiga ta’rif berilgandan buyon bu hodisaga qiziqish kuchaydi. O‘tgan davr mobaynida metaforaga ko‘plab ta’riflar berilgan bo‘lib, shu soha bilan shug‘ullanganlarning hammasi, albatta, Aristotel ta’rifi [3] ni bir eslab o‘tadilar [4;122]. Metaforani nom va ma’no ko‘chimlari orasidan alohida ajratib olib, yangi yo‘nalishlarda o‘rganish ikkinchi ming yillikning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘zbek tilshunosligining ko‘zga ko‘ringan vakillari tomonidan metaforani nutqiy hosila emas, tafakkur hodisasi sifatida tekshirishga oid progressiv ahamiyatli qarashlar ilgari surila boshladi.[5;122] Dastlab tilshunoslikda metaforalar grammatik, leksik va semantik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy tilshunoslik metaforaning tafakkur bilan bog‘liq tomonini diqqat markaziga qo‘ydi, ya’ni antroposentrik tahlilga asoslandi. Bu jihatdan tilshunos D.Xudoyberanova [6], Sh. Maxmaraimova[7], G. Qobuljonova [8], G.Nasrullayeva[9] larning monografik tadqiqot ishlari, shuningdek N.Mahmudovning ilmiy ishlari[10] diqqatga sazovor. Metaforani o‘rganishda kognitiv yondashuv vakillari J. Lakoff va M. Jonson insonning atrofdagi voqelikni metaforik idrok etishga moyilligini ta’kidlaydilar. G.N. Sklyarevskaya lingvistik va badiiy metaforani ajratadi va ularning farqiga e’tibor qaratadi.[11] XX asrga kelib, kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishi bilan metaforaga qarash butunlay o‘zgardi. N. Mahmudovning ta’kidlashicha, metafora mohiyatidagi ikki yoqlamalikka ko‘ra, bu hodisaning ikki asosiy turi farqlanadi, ya’ni lisoniy metafora va poetik (badiiy) metafora. Kognitiv metafora insonning o‘z bilimlarini namoyon qilish va konseptuallashtirish usullaridan biri bo‘lib, bir obyektni boshqa bir obyekt vositasida tushuntirish va tushunishdan iboratdir, deyiladi. Lisoniy metafora o‘xhashlik asosidagi nomlashni qayd etsa, “nolisoniy” metafora (kognitiv) lisoniy metafora yuzaga kelishini tashkil etadi. Lisoniy metafora kognitiv metaforasiz yuzaga kela olmaydi. Ular o‘z qonuniyatlaridan kelib chiqib, biri ikkinchisini taqozo etadi [12].

Ko‘p o‘lchovli hodisa bo‘lgan metaforani o‘rganish bir qator bilim sohalari va bo‘limlarni qamrab oladi. Troplarning ma’lum bir turi sifatida metafora poetikada, so‘zlarning yangi ma’nolari manbai sifatida - leksikologiyada, nutqni qo‘llashning maxsus turi sifatida - pragmatikada, assotsiativ mexanizm hamda nutqni talqin qilish va idrok etish obyekti sifatida psixolingvistika va psixologiyada, fikrlash va voqelikni bilish usuli sifatida - mantiq, falsafa (gnoseologiya) va kognitiv lingvistikada, tushuncha yoki hukmni konseptuallashtirish usuli sifatida lingvokonseptologiyada o‘rganiladi. Badiiy matnda esa metaforalar o‘zining haqiqiy va tabiiy o‘rnini topadi, bunda u tilning estetik vazifasini oqilona bajaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Isajon Sulton badiiy nasri ham lingvistik, ham badiiy, ham mualliflik metaforalariga boyligi bilan o‘ziga xosdir. Asar muallifining ongli estetik izlanishlari samarasi o‘laroq metaforalar tuzilish jihatdan so‘z, so‘z birikmasi, jumla, ibora, mikro va makro matn ko‘rinishida uchraydi. Voqeа-hodisalar, xatti- harakatlar, belgi-xususiyatlar va predmetlar o‘rtasida o‘xshashlik yaratish, antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, teomorfik, tabiat hodisalarini bilan bog‘liq metaforalarni qo‘llash, umuman, so‘z ma’nosiga katta ahamiyat berish yozuvchining alohida uslubi sanaladi. Isajon Sulton badiiyatida tabiat hodisalariga, umuman turfa mavjudotlarga ma’no yuklash orqali insonni, uning taqdir yo‘lini tasvirlash ustunlik qiladi. “Tasavvur va tafakkur roman” (adabiyotshunos I.Yoqubov) deya ta’riflangan “ Ozod” romanida asar qahramoni Ozod tabiat hodisalarining botinini ko‘rib ong-u shuurida taftish qiladi, atrofida ro‘y berayotgan hodisalar aslida o‘y-xayolining aksi ekanligini ko‘radi. Yozuvchi bu jarayonni tilning ifoda tasvir vositalarida ajoyib qo‘llaydi hamda tilimizning yangi-yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Yozuvchi badiiy diskursidagi metaforalarni shartli ravishda dastlab quyidagi katta guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

- 1.Jonlantirishga asoslangan metaforalar.
2. O‘xshatishga asoslangan metaforalar

- a) joylashish o‘rniga ko‘ra
- b) belgi-xususiyatiga ko‘ra
- s) harakat o‘xshashligiga ko‘ra

Yozuvchi matnida esa bu metaforalr aksariyat aralash holda keladi, ba’zan uch-to‘rt abzas to‘lig“icha metaforik mazmun kasb etadi. Jonlantirishga asoslangan metaforalar esa eng ko‘p qo‘llanilgani sanaladi. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq jarayonlarni (shamol esishi, yomg‘ir yog‘ishi, quyosh va oy chiqishi, chaqmoq chaqishi, bulutlarning holati va h.) obrazli tasvirlashda aynan shu usulga murojaat qilgan. Ayniqsa, shamol yozuvchining tunganmas badiiy imkoniyati, tug‘ilajak fikrlar moyasi, voqealarning bayon usuli, ularni bog‘lash vositasi, kelajak xabarchisi. Ijodkor shamolni bir necha sinonimlikda, shuningdek birikmali holda navbat bilan qo‘llaydiki, kitobxon ham bevosita shamol bilan suhbatlashadi. Yozuvchi nazdida shamol hamma voqealarning bayon usuli, ularni bog‘lash vositasi, kelajak xabarchisi. Yozuvchi uni **suv shabadasi, mitti epkin, qudratli shamol, sarsari shamol, xabarchi shamol, haybat shamollari, ko‘klarning shamoli, ozod-ozod shamollar, umrzoq shamol, beqaror shamol, bahaybat shamol** kabi so‘z birikmasi shaklidagi metaforalarda aniqlovchisi bilan tafakkurda jonlantiradi. Misollarga e’tibor qilsak:

Dasht shamoli shiddat uradi, kulrang yulg‘unlarni **chayqatadi... Yukli bulutlar pastlay boshlaydi, tevarak junbishga keladi.** Iliq tomchilar **yuzga uradi** [13;81]. ..Uni Ozod yaxshi tanir edi – og‘och barglarining orasida yoki maysalarning ostida **yashirinib yotib**, goho kichkina quyunchalar hosil qiladigan, bolakaylarning ko‘zlariga **qum-to‘zon sochib o‘ynashni** yoqtiradigan **beqaror shamol** edi u....[13;151] ...Darhaqiqat, u **bahaybat shamol** edi, **ovozi** yuksaklarda ham **eshitilardi...**[13;152]. Yozuvchi yomg‘ir yog‘ishini **yukli bulutlar** birikma-metaforasida tasvirlab, pragmatik maqsadni amalga oshiradi. Obrazli manzara paydo qilish niyatida esa shamolni jonlantiradi, uning xususiyatini insonga xos xarakterga muqoyasalab, antropomorfik metaforani yuzaga keltiradi. Umuman, Isajon Sulton matnidagi shamol ramzi badiiy konseptlarning ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Pushaymon va afsus yomon narsa. U hech nimani o‘zgartirmaydi. **Ko‘zni yoshlantiradi, dilni achchiqqa to‘ldiradi...**[13;204] Pushaymon va afsus mavhum otlarida inson ko‘nglini xira qiladigan xususiyat-belgi bor, o‘xshatish amali metaforik mazmun kasb etishga olib kelgan. ...**quyun oyog‘im ostida o‘ralashdi.** (199-b) **Tuproq ko‘pchib-jo‘sib, sanoqsiz xazinalarni bag‘ridan chiqarib yuborar...**[13;197] Ushbu misollarda esa, antropomorfik metaforalar harakat o‘xhashligi asosida hosil qilingan.

Mana shu yerda Ozod **begona** bir **isni** tuydi. Bu – **quyuq**, achimsiq, **turg‘un**, yer bag‘irlab turib qolgan, hali -veri ko‘tariladiganga o‘xshamaydigan **og‘ir hid** edi. Yigitcha is bo‘ylab boraverdi... Ha, qaydandir **ingichka**, chiziqsimon qon oqib kelgan, u hali **yangi** edi. ...u yerda yana bir **buloq ko‘z ochgan**, yer qa’ridan otilib chiqqan bu kichkina mo‘jizada nima uchundir qon ta’mi bor edi.[13;162-163]

Begona is, quyuq is, turg‘un is, og‘ir hid, ingichka qon, yangi qon kabi birikma-metaforalar matn tarkibida kelib, belgi-xususiyat o‘xhashligi asosida ma’no ko‘chishini hosil qilgan bo‘lsa, buloq ko‘z ochgan jumla-metaforasi harakat o‘xhashligi asosida ko‘chma ma’noni ifodalagan.

Menga buvimning namozi ko‘proq yoqardi. Kichkinagina bo‘lib qunishib, **musichaday** bo‘lib namoz o‘qirdi. ...Bobomning namozida **haybat** bor, buvimniki **xokisor** edi... [13;186]. Musicha beozor qush, o‘zbek lingvomadaniyatida musichaday beozor o‘xshatishi ko‘plab ishlatiladi. Matnda musicha o‘zbek oilasidagi buvilarning xarakterini berishda etalon vazifasini o‘tagan. Musulmonchilikda erkaklar namoz o‘qiganda salobat sezilishi, ayol kishining esa tortinibgina, iymanib, ovoz chiqarmay o‘qishi ham farz ham sunnat hisoblanadi. Yozuvchi haybat va xokisor so‘zlariga metaforik ma’no yuklaydi, shu orqali ham gender xoslikni ham islom tamali sanalgan namozning xususiyatini birgalikda ifodalaydi, ya’ni namoz bu – haybat, namoz bu – xokisorlik.

– Dunyo– ulkan ko‘zgudir, o‘z holicha senga yomonlik ham, yaxshilik ham keltirmaydi. Tegrangda ro‘y berayotgan hamma narsa aslida o‘z fikrlaring, his-

tuyg‘ularing, istak va tutumlarining aksidir. Aslida dunyo sobit, o‘zgarmas va hatto, qiymatsiz bir narsa, muhimi–uning sendagi akslaridir....

- Hamma insonlar ko‘zgudir va turli -tumandir, – dedi u.– Masalan, ilm va so‘z ahli botiq oynadir. Ularning aytganlari – kichikdan kattaga, kamdan ko‘pga olib boruvchi yo‘llarning ishoratlaridir.[13;145] “Ozod” falsafiy romanidagi bu ko‘rinishdagi matn-metaforalarning ichki semantikasiga diqqat qilsak, yozuvchi boshqa bir mazmunga ishora qilganligi seziladi. Insonning botini qanday bo‘lsa zohiridagi oqibatlar botiniy akslanish. Ijodkor falsafiy mushohadaga keng o‘rin beradi, dialektik qarama-qarshilikni ko‘rsatadi, imkoniyatsiz voqelik, sababsiz oqibat, mohiyatsiz hodisa kelib chiqmasligini dunyo va insonlarni ko‘zguga o‘xshatib, ko‘zgu ramzi orqali badiiy konseptni amalga oshiradi.

XULOSA

Metafora til doirasi bilan cheklanib qolmaydi, chunki inson fikrlash jarayonlarining o‘zi metafora. [14] ekan, inson har doim o‘z tafakkurida o‘zi bilan gaplashadi, u lisoniy shakllar, badiiy obrazlar va afsonaviy timsollarga shunchalik sho‘ng‘ib ketadiki, u faqat mana shu sun’iy muhit yordamida hech narsani ko‘ra olmaydi va o‘rgana olmaydi, sun’iy muhit esa o‘z-o‘zidan obrazlilikni yaratuvchi metaforalarga asoslanadi. Shuning uchun aynan tilshunoslik yo‘nalishlari asosiy diqqatini ushbu obrazlilikning ta’sir usulini aniqlashga qaratgan. Biz ushbu maqolada Isajon Sulton qo‘llagan obrazlilikning bir tomchisini tahlil qildik xolos. Umuman, Isajon Sulton badiiy diskursidagi metaforalar cheksiz ummon, har biri mushohada va mantiqqa boy. Ba’zan butun matn metaforik ma’no tashiydi, kitobxon uni sezgilari orqali idrok qilib jonli tasvirlab oladi, tafakkurida tahlil qilib, xulosa chiqaradi. Albatta, keyingi ishlarimizda yozuvchi badiiyatidagi metaforalarning boshqa turlariga ham urg‘u beramiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қосимов У, Жўраев М. Ижодни англаш йўлида. Т. 2015. 161-бет
2. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. Тошкент, “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” (164) 63-бет
3. Арасту «Поэтика», «Ахлоқи кабир». Тошкент, «Янги аср авлоди». 2004
4. Кабулжанова Г. Метафора ва унинг табиатига қарааш // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2017. – № 2. – Б.40-45
5. Qarang: Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2017. – В.122
6. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри. дисс... – Тошкент: ЎзРФА ТАИ, 2015. –240 б
7. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти: филол.фан. фалсафа док. (Doctor of Philosophy) автореф. – Тошкент, 2018. –168 б.
8. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Фил. фан. док-ри диссертацияси.– Самарқанд, 2020.
9. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2000. – 124 б
10. Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвомаданий аспекти: филол.фан. фалсафа док. (PhD) автореф. – Тошкент, 2019. –139 б
11. Маҳмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013. – № 4. – Б.3-6
12. Bu haqda batafsil qarang: Скляревская Г.Н. Метафора и сравнение: логические, семантические и структурные различия // Мир русского слова. 2017. № 4. С. 9–17. 18.
13. Султон Исажон. Генетик. Тошкент: Янги асар авлоди.2018.– 382 б.
14. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // М: Прогресс, 1990. – С.5-32.